



## "TEATRNING HAYOTDAGI MUHIM O'RNI".

**Behruz Toshtemirov Botirovich**

*O'zbekiston Respublikasi*

*Surxondaryo viloyati, Jarqo'rg'on tumani*

*5-sonli Bolalar musiqa va san'at maktabining  
teatr sinfining o'quvchisi.*

**Annatsiya:** *Teatrning birinchi Jarqo'rg'on tumanida ilk ildizi o'tgan asrning 20-30 yillariga borib taqaladigan mazkur teatr, ilgariroq Jarqo'rg'on tumanida faoliyat boshlagan, truba negizida 1933-yili rasman tashkil topgan. O'tgan davr mobaynida ushbu teatr repertuaridan milliy va jahon dramaturgiyasining yuzlab sara namunalari joy oldi, qancha-qancha talantli san'atkorlar shu sahnada unib o'sdi. Havaskor aktyorlarning birinchi chiqishlaridan ko'plab muxlislar olqishiga sabab bo'lar edi. Ular bir qancha insonlarnig hayotini yaxshilik tomonga o'zgartirardi.*

**Kalit so'zi:** *Teatr insonlar uchun qanday ibratli, Mahmudxo'ja Behbudiyning ibratli so'zlari, Obraz nima, nechanchi yilda teatr Jarqo'rg'on tumanida tashkil topgan.*

Teatr insonlar uchun shunday kerak, ular notog'ri ish qilmasligi uchun. Teatr to'rt tomoni oynaband qilingan bir devordir. Teatr axloq, to'g'rilik, uyatsizlar uchun uyat, yomonlarga yaxshi bo'lish, beradigan bir ko'zgidir. Teatr har doim insonlarga ibrat bo'lib kelmoqda, nafaqat katta yoshlilar balki kichkina bolalar uchun ham yaxshilikka yo'l boshlaydi. Teatr yaxshi-yomonni ko'rsatuvchi bir oynadir, teatr madaniyat va manaviyat maktabidir...

Mahmudxo'ja Behbudiy buyuk jadidchi, uning so'zlari oltinga teng. Milliy g'oya, erkin ideallarini targ'ib etish uchun katta ahamiyatga egadir. M. Behbudiy shunday asarlar qoldirganki hozirgi yoshlar uchun ibrat bo'lib kelmoqda. Uning teatr haqida shunday so'zlari bor; "Teyotr ibratnomadur... Hechkinga rioya qilmasdan to'g'ri so'zlashuvchi va ochiq haqiqatni bildiruvchidir... Umumiy odatlarni nafi va zararidan paydo bo'laturg'on natijalarni teatrxonada aynan ko'rsaturlarki, har kim mundan ta'sirlanib, yomon odatlarni tark etib, yaxshilikni ziyoda ishlatmoqg'a sabab bo'lur... teyotr xonalari masxarabozxona bo'lmay, balki ibratxonadur, mushaxxis-aktyor muallimi axloqdur" degan so'zlarni aytgan. Bu so'zlarni barcha yoshlar bilishi lozim. O'z tarixini bilishi shartdir. Ko'proq shunday insonlarning kitoblarini o'qisaki manaviyati, dunyo qarashi kengayadi. Biz yoshlar bunday buyuk avlodlarimizni izdoshi bo'laylik. Muhtaram, Prezidentimizning ishonchini oqlaylik.

Obraz nima-obraz turli insonlarning ichki fe'l atvorini namoyon etadigan harakatdir. Obrazni haqiqiy aktyor va aktrisalarning sahnada boshqa bir siymoni gavdalantirishi hamda holatini namoyon qiladi. Obrazni haqiqiy aktyor va aktrisalar sahnada ko'rsata oladilar. Eng murakab obrazlar bu nogiron, eshitmaydigan va soqob



obrazini yaratishdir. Mahoratli aktyor obrazlarni mahorat bilan ijro etganda tomoshabinlarning qalbiga kirib boradi.

Surxondaryo viloyatining tarixiga bir nazar solsak, Jarqo'rg'on tumanida teatr birinchi rivojlangan ekan hamda havaskorlardan teatr trupasi tashkil topgan. Teatr grupalar tashkil topgan. Surxondaryo teatr tarixiga qarasaq 1933-yili Termiz shahriga tutash Jarqo'rg'on tumanida viloyat miqyosida daslabki kolxoz-savxos teatri tashkil etildi. Keng jamoatchilik uchun tashkil etilgan bu teatrga dastlab xalq orasidan chiqqan, talantli, ishtiyoqmand, iqtidorli, ko'ngili kishilardan birinchi to'plangan. Teatrning dastlabki repertuarini asosan kichik-kichik sahna ko'rinishlaridan boshlagan. Jarqo'rg'on teatrini tashkil qilishda o'sha yerlik Qori aka Madaminovning xizmatlar e'tiborli bo'ldi. U teatrning ilk rahbari sifatida trupani tumanlarni kezib, istidodli yoshlarni to'pladi. Kichik spektakllar qo'ya boshladi. Teatr tomoshabinlarga juda ham ma'qul keldi. Shunday qilib teatr shaklandi. So'ng Surxondaryo viloyati teatri 1935-yil 5-noyabr kuni Hamzaning "G'olibiyat" asari bilan ochildi. Afandixon Ismoilov sahnalashtirgan ushbu asar teatrning kelgusi ijod yo'lini belgilab berishda muhim omil bo'lib xizmat qildi. Ular urush davrlarida ham ijod qila olishdi. Turli spektakllarni sahnalashtirib tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'ldi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Faxriddin Abduvohidov. Kecha va bugun kitob. Toshkent-2017 yil "NISO POLIGRAF" MCHJ bosmaxonada chop etilgan.
2. Manon Uyg'ur nomidagi Surxondaryo viloyati musiqa drama teatr, 80 yoshda kitob. Termiz-2015.
3. E. F. Ismoilov. Manon Uyg'ur kitob. G'afur G'ulom nomidagi nashriyoti. 1980-yil.
4. K. S. Stanislavskiy. Aktyor o'z ustida ishllashi kitob. Toshkent "Yangi asr avlod" 2011-yil